

OSHQOZON-ICHAK, JIGAR KASALLIKLARI

O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyati

Niyazova Yorkinoy Mirzaxamdammovna

Andijon Davlat tibbiyot instituti

Oilaviy shifokorlarni tayyorlash kafedrasi assisenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oshqozon-ichak va jigar kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilarini tahlil qilish hamda zamonaviy diagnostika va davolash usullarini ko'rib chiqish maqsad qilingan. Maqolada so'nggi yillardagi ilmiy ishlanmalar, global va mahalliy statistik ma'lumotlar asosida ushbu kasalliklarning dolzarbligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Oshqozon-ichak kasalliklari; jigar kasalliklari; diagnostika; davolash; klinik amaliyot; epidemiologiya.

ЗАБОЛЕВАНИЯ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНОГО ТРАКТА, ПЕЧЕНИ

Республика Узбекистан,

Андижанская область

Ниязова Ёркиной Мирзахамдамовна

Андижанский государственный медицинский институт

Доцент кафедры подготовки семейных врачей

Аннотация: эта статья направлена на анализ этиологии, патогенеза, клинических признаков заболеваний желудочно-кишечного тракта и печени, а также на обзор современных методов диагностики и лечения. В статье освещается актуальность этих заболеваний на основе научных разработок

последних лет, глобальной и локальной статистики. Результаты исследований становятся важными для раннего выявления заболеваний и разработки эффективных стратегий лечения.

Ключевые слова: желудочно-кишечные заболевания; Заболевания печени; диагностика; лечение; клиническая практика; эпидемиология.

DISEASES OF THE GASTROINTESTINAL TRACT AND LIVER

Republic of Uzbekistan, Andijan Region

Niyazova Yorkinoy Mirzakhammadovna

Andijan State Medical Institute

Assistant Professor, Department of Family Medicine

Abstract: This article is aimed at analyzing the etiology, pathogenesis, and clinical signs of diseases of the gastrointestinal tract and liver, as well as an overview of modern diagnostic and treatment methods. The article highlights the relevance of these diseases based on recent scientific developments, global and local statistics. The research results are becoming important for the early detection of diseases and the development of effective treatment strategies.

Key words: gastrointestinal diseases; Liver diseases; diagnosis; treatment; clinical practice; epidemiology.

Kirish

Oshqozon-ichak va jigar kasalliklari bugungi kunda dunyo miqyosida sog'liqni saqlash tizimi uchun dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, gastroenterologik va gepatologik patologiyalar global kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu kasalliklar nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki rivojlanayotgan hududlarda ham keng tarqalgan bo'lib, aholi turmush sifati, mehnat unumdorligi va iqtisodiy barqarorlikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Oshqozon-ichak kasalliklariga gastrit, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yaralari, gastroezofageal reflyuks kasalligi (GERD), yallig'lanishli ichak kasalliklari va funksional buzilishlar kiradi. Bu kasalliklarning rivojlanishida

ovqatlanish odatlari, stress, infeksiyalar, irsiy omillar va ekologik sharoit muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, gepatitlar, jigar sirrozi va yog'li gepatoz kabi jigar kasalliklari ham global sog'liqni saqlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham oshqozon-ichak va jigar kasalliklari yuqori uchrash chastotasiga ega. Statistik ma'lumotlar ushbu patologiyalar bilan bog'liq bemorlar soni so'nggi yillarda ortib borayotganini ko'rsatadi. Aholining oziq-ovqat tarkibi, gigiyenik madaniyat darajasi, ichimlik suvi sifati va turmush tarzidagi o'zgarishlar bu jarayonga bevosita ta'sir qilmoqda. Shu sababli mazkur kasalliklarni erta diagnostika qilish, ularni samarali davolash va profilaktika tadbirlarini takomillashtirish zamonaviy tibbiyot oldida turgan muhim vazifalardandir.

Mazkur maqolaning maqsadi — oshqozon-ichak va jigar kasalliklarining etiologiyasi, patogenezini, diagnostikasi va davolash usullarini tahlil qilish hamda mavjud ilmiy yondashuvlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi, bir tomondan, kasalliklarning keng tarqalganligi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari bilan belgilanadi, ikkinchi tomondan, zamonaviy tibbiyotda diagnostika va terapiya imkoniyatlarining tezkor rivojlanishi bilan asoslanadi. Shu bois maqola gastroenterologiya va gepatologiya sohalaridagi ilmiy yangiliklar hamda amaliy tajribalarni umumlashtirishga qaratilgan.

Tadqiqot materiali va usullari: Tekshirishlardan olingan natijalar shuni kursatdiki, umumiy tekshirilgan 26 ta me'da yara kasalligidan 24 tasida va 29 ta o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligidan 26 ta bemorda HP - infeksiyaga o'tkazilgan test ijobiy natija berdi. Tekshirish o'tkazilgan bemorlarning barchasida me'da sekresiyasi mos ravishda o'zgarganligi aniqlandi (tablisa 1). Unda MYAKda 96% va UBIYAKda esa 92% pH - kislotalikka uzgargan. Suyakning osteopeniya markerlaridan esa MYAK va UBIYAK da osteokalcin ko'rsatkichi mos ravishda 42,3% va 45,6% miqdorida

sogʻlom odamlarnikiga nisbatan pasaygan. b - cross laps kursatkichi esa MYAK va UBIYAK bilan ogʻrigan bemorlarda deyarli ikki baravar oshgan. Osteopeniyaning P - Th kursatkichi UBIYAKda ishonarli tarzda kamaygan. Bu kursatkich MYAK da statistik jixatdan ishonarsiz natija berdi. Shu bilan birga, tekshirishlar qonda kalsiy, fosfor va ishqoriy fosfataza miqdori bu kasallarda uzgarmagan (tablisa 2).

Jadval-1

**MYAK va UBIYAK bilan ogrigan bemorlarning me'dasida
qontrol nuktalarda Ph ning uzgarishi**

Tekshirila digan nuqtalarnin g joylashish i	"Ozerso"	Me'da gumbazi	Me'da tanasi va orka devori	Me'da tanasi, oldingi devori	Me'daning antral so- xasi, kichik egrilik	Me'daning antral soxasi, katta egrilik
Soglom	2,1±0,02	3,8 ± 0,4	1,9 ± 0,12	2,1 ± 0,10	6,0 ± 0,4	6,5 ± 0,4
MYAK	1,2±,05*	0,9±0,05*	1,0±0,05*	0,8±0,05*	1,9±0,07*	1,8±0,06*
UBIYAK	1,0±,05*	0,7±0,06*	0,9±0,06*	0,7±0,04*	1,6±0,07*	1,3±0,07*

Eslatma: bunda *- kontrol gurux koʻrsatkichlariga nisbatan ishonchlik farqi
($r < 0,05$)

Jadval-2

**MYAK va UBIYAK bilan og‘rigan bemorlar suyaklar mineral
zichligining bioximiyaviy ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkichlar	Soglom	Me‘da yara kasalligi	O‘n ikki barmoqli ichak yara kasalligi
Osteokalcin	17, 5± 3,8	12,8± 0, 5*	10, 2± 0, 9*
b- cross	0, 2± 0, 04	0, 4+ 0, 07*	0, 45± 0, 05*
P-TH	35, 5± 4, 3	28, 4± 2, 5	22, 5± 3, 4*
Kalsiy	2, 12± 0, 35	2, 50± 0, 50	2, 40± 0, 60
Fosfor	1, 43± 0, 40	1, 35± 0, 35	1, 55± 0, 30
IF yed/l	170, 5± 14, 0	185, 5± 18, 5	198, 0± 16, 5

Qonda yallig‘lanish sitokinlarini tekshirishning ko‘rsatishicha, MYAK va UBIYAK bilan og‘rigan bemorlarda IL - 6 miqdori sog‘lom odamlarga nisbatan 54,2% va 50,4% ga oshgan. Boshqa sitokin FNO - a miqdori esa MYAK va UBIYAK bilan og‘rigan bemorlarda 84,1% va 81,2% oshgan (tablisa 3).

Jadval 3

**MYAK VA UBIYAK bilan ogrigan bemorlar qon zardobida
sitokinlar kursatkichi**


Sitokinlar	Soglom	UBIYAK	MYAK
IL 6 (pg/ml)	31, 20± 2,20	46,60± 3,50*	48,80± 3,70*
FNO-α (pg/ml)	3,20± 0,45	5,80± 0,40*	6,40± 0,46*

Instrumental tekshirishda, ya'ni barcha bemorlar bilak suyagining distal kismini ultratovush densitometr yordamida tekshirilganda MYAK bilan og‘rigan bemorlarning 22 tasida T - indeksi 2,6 yed.ga va UBIYAK bilan og‘rigan 24 ta bemorda T - indeksi 2,5 yed.ga pasayganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari: O'tkazilgan rang korrelyasion taxlili natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, MYAK va UBIYAK bilan og'rigan bemorlarda bevosita korrelyasion bog'liqlik qo'yidagi ko'rsatkichlar orasida kuzatildi: HP - infeksiyaga nisbatan ijobiy HP-test va b-cross laps ($r = 0,6$), 5 yildan uzoq kechuvchi anamnez va b-cross laps ($r = 0,7$). Salbiy korrelyasion uzaro bog'liqlik esa qo'yidagi parametrlar orasida aniqlandi: IL - 6 va osteokalsin ($r = -0,6$), HP - infeksiyaga nisbatan ijobiy HP-test va osteokalsin ($r = -0,5$), IL - 6 va T-indeks ($r = -0,5$), 5 yildan uzoq kechuvchi anamnez va T-indeks ($r = -0,5$) (rasm 1).

Rasm-1

MYAK va UBIYAK bilan ogrigan bemorlarda T - indeks va boshqa parametrlari orasida korrelyasion bogliqlik qo'yidagicha:



Shunday qilib, utkazilgan izlanishlar natijasiga kura, hazm traktining uzoq kechuvchi va HP-assosirlashgan kasalliklari, ya'ni MYAK va UBIYAKda osteopeniya rivojlanib boradi. Kasallik kechish davomiyligi ortib borgan sari,

suyak tuqimasining mineral zichligi kamayib boradi. Bu HP - infeksiyaning organizmga salbiy ta'siri xamda yalliglanish mediatrlari sintezining oshib ketishi tufayli xam kelib chiqishi qayd qilindi. Ular ko'pincha o'zaro bir - biriga bog'lik ravishda osteopeniyaning rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, shuni xam xisobga olish kerakki, MYAK va UBIYAK ni davolashda qo'llaniladigan tarkibida alyuminiy saqlaydigan antasidlar va sitoprotektorlarni (sukralfat, venter, alyumag, maoloks va b.k.) uzoq qullash xam osteopeniya rivojlanishiga olib keladi. Bu dori vositalarining nojuya ta'sirlaridan biri suyak tuqimasidagi osteodistrofik uzgarishlarga sabab bo'lishidir.

XULOSA

1. Uzoq kechgan (3-5 yildan ortiq) va HP-infeksiyasi bor me'da va o'n ikki barmoq ichak yara kasallarida osteopeniya rivojlanishi kuzatiladi;
2. Me'da va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligida suyak tuqimasining zichligini, ya'ni osteopeniyani aniqlashda suyak markerlari: ostekalcin, b - cross laps va ultratovush densitometriyada T-indeksi asosiy kursatkichlar sanaladi;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Франке Ю., Рунге Г. Остеопороз. - М.: Medicina, 2005. - 300 с.
2. Хилова К. "Системные остеопороз I Costnix System System Zubochelystnoy. Словакофарма Revuel. 2008. №4 S. 99-101.
3. Simmerman Ya.s. Патология гастродуоденона I Helicobacter pylori: Точка Стрена. Клин фармакол. я потею. 2006; 2: 37-40.
4. Simmerman Ya.s. Yazvennaya Bolazn I Helicobacter pylori - Infusion: Novie Fact, Razhantleniya, преололология. Clin, Med. 2005; 4: 67-70.
5. Kawamoto R, Murase C. //Relationship between bone metabolism and effects of lifestyles after gastrectomy. J UOEH. 2005 Mar 1;27(1):73-87.
6. Sawicki A, Regula A, Godwod K, Debinski A.//Peptic ulcer disease and calcium intake as risk factors of osteoporosis in women. Osteoporos Int. 2003 Dec;14(12):983-6. Epub 2013 Oct3.

7. Хусаинова М. А., Холтураев А. Т. Изменение маркеров костной ткани у больных язвенной болезнью желудка и двенадцатиперстной кишки //Национальная Ассоциация Ученых. – 2016. – №. 1. – С. 19-19.